

дей состоит общество, они служат во благо государства.

Таким образом, каждый человек имеет своё место в жизни, он имеет право на счастливую жизнь.

На стадии «Рефлексия» предлагаем приём «Эссе».

Студенты в конце занятия должны ответить на вопрос «Что нового я получил?»

В заключении можно сказать, что применение данной технологии, то есть технологии развития критического мышления у студента способствует повышению мотивации изучения определённой темы, он учится мыслить творчески, неординарно.

Литература

1. Ахмедова Л.Т., Ларай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. –Ташкент: 2016, -С. 209.
2. Buzan T. Brain Training for Kids.-NewYork: 2012.
3. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. - М.: 2007.
4. Конишева А.В. Современные методы обучения. – Минск: 2007.
5. Методы изобретения знаний и инновационных проектов на основе ТРИЗ: / Т.В.Погребная, А.В.Козлов, О.В.Сидоркина. – Красноярск: 2010.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада А.С.Пушкиннинг «Мис чавандоз» поэмасини ўрганишда қўлланилган метод ва усуллар, ўқиш ва ёзиш орқали ўқувчиларда танқий фикрлаш технологиясини ривожлантириш масалалари қараб чиқилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается технология развития критического мышления через чтение и письмо, методы и приёмы, применяемые при изучении поэмы А.С.Пушкина «Медный всадник».

SUMMARY

There are analysed the technology of developing critical thinking through reading and writing, methods and ways which are used in learning a poem "Copper Rider" by A.S.Pushkin.

HOMILADOR AYOLLAR HISSIY-EMOTSIONAL SOHASI DIAGNOSTIKASI

M.B.Kalandarova - *assistant o'qituvchi*

Urganch davlat universiteti

Tayanch so'zlar: reproduktiv salomatlik, emotsiya, xavotirlik, homiladorlikka munosabat, metod, psixodiagnostik tadqiqot.

Ключевые слова: репродуктивное здоровье, эмоции, тревожность, отношение к беременности, методы, психодиагностическое исследование.

Key words: reproductive health, emotions, anxiety, relation to the pregnancy, methods, psychological diagnostic research.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Binobarin, oilani mustahkamlash, uning qadriyatlarini asrash, sog'lom munosabatlar muhitini yaratish har birimizning insoniy burchimizdir.

Tibbiyot amaliyotidan ma'lumki, tug'ish yoshidagi ayollarga nafaqat tibbiy muolajalar, balki psixologik usullar bilan ham yordam ko'rsatish nihoyatda zarurdir. Ayollarda homiladorlik davri bilan bog'liq bo'lgan hissiy-emotsional sohasida kechadigan o'zgarishlar ularda psixologik tanglikni keltirib chiqaradi va bu holat bevosita bo'lajak ona va bola salomatligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Mazkur muammolarni o'rganish va bartaraf qilish maqsadida homilador ayollar hissiy-emotsional sohasi diagnostikasini o'rganishni maqsad qildik.

Psixologik adabiyotlarda homilador ayollar emotsional holati omillari ikki guruhga ajratilgan:

- Obyektiv (ayolga nisbatan tashqi);
- Subyektiv (shaxsiy) omillar.

Obyektiv omillar tarkibiga birinchi tug'ruq yoshi, sog'lig'i holati, homiladorlikning kechishi xususiyatlari, homiladorlik muddati, ma'lumoti darajasi, oilaviy holati, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, atrofdagilar bilan muosabati kabilarni kiritish mumkin [4].

Homilador ayollar emotsional holatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan yana biri ularning umumiy va reproduktiv sohadagi salomatligi hisoblanadi.

Mavjud tadqiqotlarning ko'rsatishicha, og'irlashgan akusher-ginekologik anamnez ayollarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda psixologik qiyinchiliklarni tug'diradi. Tadqiqotchi E.K.Aylamazyan ma'lumotlariga ko'ra, homila tushishi xavfi bo'lgan 85% ayollarda chegaraviy psixik buzilishlar kuzatiladi. Reproaktiv muammolar mavjud bo'lmagan homilador ayollarda esa emotsional bardamlik ancha yaxshi. Xususan, homiladorlik sog'lom kechgan 25% ayollarda nevroitik reaksiya holati kuzatilgan [4].

Ayollar homiladorligi davri bilan bog'liq hissiy-emotsional holatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqot ishini quyidagicha tashkil qildik.

Tadqiqotda tajriba guruhi sifatida turli toifadagi homilador ayollar tanlab olindi. Tajriba guruhida turli kasb

egalaridan (o'qituvchi, shifokor, tadbirkor, tikuvchi, talaba, uy bekasi) 20-36 yoshgacha bo'lgan 35 ta ayol qatnashdi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, "Homilador ayol munosabatlarini aniqlash" testi (I.V.Dobryakov) metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida kuzatish metodidan dastlabki ma'lumotlarni olish uchun sinaluvchilarning atrofdagilar bilan munosabatlarini, turli vaziyatlarida ularning tashqi xulq-atvorini muntazam qayd etib bordik.

Suhbat metodidan keyingi ma'lumotlarni to'plash maqsadida foydalanildi. Suhbatda sinaluvchilarga turmush o'rtog'i, yaqin qarindoshlar, hamkasblar va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarida o'zlarida qanday kechinmalarni kechirishlari hamda sog'ligiga, fikrlashiga, o'zlarini tutishlariga ta'sir qilishlari bo'yicha savollarga javob olindi.

Diagnostic bosqichda ayollarda "Homilador ayol munosabatlarini aniqlash" testi (I.V.Dobryakov) dan foydalandik. Mazkur test shu davr bilan bog'liq homilador ayolning o'z-o'ziga, "ona-bola" tuzilishiga, atrofdagi odamlarning fikriga va qarashlariga munosabatini aniqlash imkonini beradi [3].

Homilador ayollarda olib borilgan homiladorlikka munosabat metodikasi natijalariga ko'ra asosan aralash, diffuz tiplar namoyon bo'ldi. Tadqiqotimizda qatnashgan ayollar quyidagi natijalarni qayd qildilar:

Homilador ayolning o'z-o'ziga munosabatini o'rganish natijasida homiladorlikka munosabat shkalasi bo'yicha:

- 9 nafar ayol optimal tip;
- 26 nafar ayol eyforik tipga mansubligi aniqlandi.

Bundan ko'rinadiki, ko'pchilik ayollar homiladorlikni katta baxt sifatida qabul qilyapti.

Hayot tarziga munosabat shkalasi bo'yicha:

- 6 nafar ayolda xavotirli tip;
- 19 nafar ayolda gipogestagnozik tip;
- 5 nafar ayolda optimal tip;
- 1 nafar ayolda depressiv tip aniqlandi.

Tug'ruqqa munosabat shkalasi bo'yicha:

- 24 nafar ayol optimal tip;
- 4 nafar ayol eyforik tip;
- 3 nafar ayol depressiv tip;
- 4 nafar ayolda xavotirli tip aniqlandi.

“Ona-bola” tuzilishiga munosabatlarni o’rganish natijasida o’ziga ona sifatida munosabat shkalasi bo’yicha:

- 11 nafar ayol eyforik tip;
- 6 nafar gipogestagnozik tip;
- 13 nafar ayol optimal tip;
- 2 nafari depressiv tip;
- 3 nafar ayolda xavotirli tipga mansub natija qayd etildi.

Bolaga munosabat shkalasi bo’yicha:

- 12 nafar ayol xavotirli tip;
- 16 nafar ayol optimal tip;
- 4 nafari eyforik tip;
- 3 nafari gipogestagnozik tip.

Ko’krak bilan emizishga munosabat shkalasi bo’yicha:

- 3 nafar ayol depressiv tip;
- 4 nafar ayol xavotirli tip;
- 20 nafar ayol eyforik
- 8 nafari gipogestagnozik tip ekanligi qayd etildi.

Atrofdagi odamlarning fikriga va qarashlariga munosabatini aniqlash natijalari quyidagicha, eriga munosabatda:

- 14 nafar ayol optimal tip;
- 4 nafar ayolda gipogestagnozik tip;
- 17 nafar ayolda eyforik tip ekanligi aniqlandi.

Yaqinlariga munosabatni aniqlash natijalari quyidagicha:

- 32 nafar ayol optimal;
- 3 nafar ayol gipogestagnozik tip.

Begonalarga munosabatda:

- 13 nafar ayol xavotirli tip;
- 13 nafari eyforik;
- 5 nafari gipogestagnozik tip;
- 4 nafari optimal tip ekanligi qayd etildi.

Olingan natijalarni xulosa qiladigan bo’lsak, hayot tarziga munosabatda 17% ayolda xavotir, tug’ruqqa munosabatda 3% xavotir, 2% depressiya, bolaga munosabatda 34 % xavotir, ko’krak bilan emizishga munosabatda 5% de-

pressiya, 7% da xavotir, begonalarga munosabat shkalasi bo’yicha 38% xavotir aniqlandi.

Mazkur natijalarda tug’ruq jarayoni va tug’ruqdan keyingi holatlar bo’yicha ayrim ayollarning xavotirni his qilayotganliklarini aniqladik.

Homilador ayollarda tug’ruq jarayonida va tug’ruqdan so’ng kuzatilishi mumkin bo’lgan ruhiy va xavotirli-depressiv buzilishlarni davolashda tibbiy va psixologik yordam ko’rsatish lozim.

Tug’ruqdan so’ng rivojlanishi mumkin bo’lgan xavotirli-depressiv buzilishlarning oldini olish o’ta muhimdir. Buning uchun homilador ayollarni psixolog ko’rigidan o’tkazish zarur.

Bundan ko’rinib turibdiki, homilador ayollar hissiy-emotsional sohasida yashash sharoitlari bilan bog’liq birmuncha qiyinchiliklarni his qilyaptilar. Bu qiyinchiliklar shaxs emotsional, motivatsion va irodaviy sohasida o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mazkur o’zgarishlar shaxslararo munosabatlarda, oilaviy munosabatlarda, mehnat sharoitlarida va shaxsning o’z-o’zini baholash jarayonlarida yaqqol namoyon bo’lishini ko’rish mumkin. Bu kabi salbiy o’zgarishlarni tibbiy muolajalar bilan bir qatorda psixologik tadbirlar bilan bartaraf qilish maqsadga muvofiq.

Demak, yuqoridagi tadqiqot natijalaridan quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Organizmda kechadigan har qanday fiziologik o’zgarish inson psixikasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi va homiladorlik holati bilan bog’liq xususiyatlar shaxs emotsional holatlarida yaqqol namoyon bo’ladi.

2. Barcha homilador ayollar psixodiagnostik tekshiruvdan o’tishi va natijalar asosida korreksion psixoterapevtik muolajalarda qatnashishi zarur.

3. Homilador ayollar uchun psixodiagnostik dastur to’plam ishlab chiqish kerak. Bu to’plam o’z ichiga ijtimoiy soha, shaxsiy-emotsional soha, psixofiziologik soha yo’nalishlarining diagnostik vositalarini qamrab olishi kerak.

Adabiyotlar

1. Абрамова Г.С. Психология в медицине. -М.: 2000. -С. 272.
2. David G. Myers “Psychology”. NY, 2010. WORTH PUBLISHERS. -P. 118.
3. Добряков И.В. Перинатальные аспекты психологии и психотерапии семьи. // Семейный диагноз и семейная психотерапия. СПб. 2003. -С. 234.
4. Luqmonov A. Emotsional kechinmalarning homiladorlik xususiyatlariga ta’siri. “XXI asr psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari”ni o’rganishga bag’ishlangan konferensiya to’plami. -T.: 2012. 154-b.

REZYUME

Mazkur maqolada homilador ayollarning hissiy-emotsional sohasiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, homilador ayol munosabatlarini aniqlashga qaratilgan psixologik tadqiqot natijalari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье проанализированы факторы влияющие на эмоциональную сферу беременных женщин. А также приводятся результаты психологического исследования сферы взаимоотношений беременных женщин.

SUMMARY

The article analyzes the factors affecting the emotional environment of pregnant women. There have been presented the results of a psychological study aimed at identifying the relationships of pregnant women.

ТАЛАБАЛАРДЫҢ КӘСИПЛИК СЫПАТЛАРЫН КӘЛИПЛЕСТИРІЎДЕ МИЛЛИЙ КӘДРИЯТЛАРЫҢ ТУТҚАН ОРНЫ

К.А.Кутлымурадов - оқытушы

Нөкис темир жоллары транспорты кәсіп-өнер колледжи

Таянч сўзлар: жaxon ҳамжамияти, малакали кадрлар, инсоний фазилатлар, умуминсоний қадриятлар, қариндош-уруғлар, ҳаёт тажрибаси, ота-оналар насиҳати, ноқобил фарзанд, тарихий аъёналар.

Ключевые слова: мировое сообщество, квалифицированные кадры, человеческие качества, общечеловеческие ценности, родство, жизненный опыт, родительский совет, ребёнок-инвалид, исторические традиции.

Key words: world community, qualified personnel, human qualities, universal values, kinship, life experience, parental advice, disabled child, historical traditions.

Күн сайын раўажланып, жəхəн жамийетшилигинде хəддєн тыс ɵз экономикалык хəм сийасий орнына ийе болып атырған нəўқыран Өзбекстанымызды жəнеде раўажландырыў, сондай-ақ оны дўньяға танытыўда қəнигели кадрларға болған зəрўрликти қанаатландырыў талап етиледи. Республикамызда

жоқары тəлим оқыў орынларында түрли тараўлар хəм бағдарлар бойынша талабалар билим алады. Талабалардың ең дəслеп инсаныйлық пəзийлетлерди қəлиплестиріўде, оларды тəртип-интизамлы, тураклы, мəдениятлы, билимли, тəжрийбели, хўжданлы, сондай-ақ ɵз кəсибининң жетик устасы болып жетисіўинде,